



**“BIRINCHI MUALLIM” VA “IKKINCHI MUALLIM”
ASARLARINING JADID DARSLIKLARI ORASIDA TUTGAN
O’RNI**

Gulboyev Husan Shokir og’li

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti talabasi
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805585>

ARTICLE INFO

Received: 25th March 2023

Accepted: 05th April 2023

Online: 06th April 2023

KEY WORDS

Didaktik prinsplar, pedagogik qarashlar, ta’lim-tarbiya, axloq, birinchi muallim, ikkinchi muallim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning jadidchilik faoliyati borasidagi pedagogik qarashlari o’z ifodasini topgan. Shuningdek, maqolada “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” drarsliklarining tuzilish tarkibi, jadid darsliklari orasida tutgan o’rni haqida fikr yuritilgan.

Ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning xalqni savodli qilish va ularning ong darajasini oshirish uchun amalga ishiringan ishlari jadidlar o’rtasida katta ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniyning yangi usul maktablari uchun yaratgan darsliklari milliy ongni oshirish uchun asosiy mbba bo’lib xizmat qildi. Jadidchilik harakatlarining tub mohiyatiga sodiq qolgan holda, yangi usul maktablari o’quvchilariga ta’lim berish texnikasini ishlab chiqish, yangi kadrlar tayyorlashda o’quv desliklarining o’rni katta ekanligini teran anglagan Abdulla Avloniy 1909-yig’da yaratgan “Birinchi muallim” asarining ahamiyati ta’lim oluvchi boshlang’ich sinf o’quvchilarining savod chiqarisglarida yengil, talaffuzga qulay tarzda darsliklaridan biri hisoblanadi. “Birinchi muallim” asari yangi usul maktablarida keng tarzda yoyila boshlagan. Uning o’quvchilar doirasida tutgan ahamiyati kengaya bordi. Jadid maktablarining birinchi sinf o’quvchilaridan boshlab to’rtinchi sinf o’quvchilariga qadar “Birinchi muallim” darsligini o’qishar, keyinchalik yaratilgan “Ikkinchi muallim” daraligi bilan tanishar edilar. “Birinchi muallim” darsligi tarkibida alifbo, kichik-kichil hikoyatlar, voqealarning rivoyatlar, hikoyalar bilan hamohang tasviri o’quvchilarda qiziqishni o’yg’otib tez savod chiqarishlariga sabab bo’lar edi. Bu esa yangi usul maktablariga qo’yiladigan eng dastlabki asarlardan biri hisoblanadi. “Biri chi muallim” darsligida asosan til qoidalari, imlo savodxonligi kabilarga qat’iy e’tibor qaratilgan bo’lib, ushbu mavzularning amaliyoti kitob doirasida axloqqa oid hikoyalar yoki she’riy parchalar bilan ziynatlangan. Abdulla Avloniy o’z pedagogik qarashlarini darsliklar asosida jadidchilik faoliyati namoyondalari bilan o’zaro hamkorlikda amalga oshirgan. Bunda Smaarqand hududidagi yangi usul maktablarining faol targ’ibotchisi Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo’jayev va boshqalar bilan fikr almashgan holatda maktab o’quvchilari uchun darsliklar yaratadi. Shu asosda boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun “Birinchi muallim”, o’rta sinf o’quvchilari uchun “Ikkinchi muallim”, bitiruvchi va yuqori sinf o’quvchilari uchun “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlari misol bo’la



oladi. “A.Avloniy “Birinch muallim” va “Ikkinchi muallim” kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to’g’risida pandnoma tarzidagi satrlarni bitgan bo’lsa, “Maktab gulistoni”dagi she’r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olishi kuzatiladi. Zero, bunday she’rlar orqali yosh avlodni ma’rifatga da’vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o’z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi ham ko’zlangan”. [1] Abdulla Avloniyning 1905-1917-yillar oralig’ida yaratilgan asarlarida didaktik prinsplarga tayanadi. Bunda asosan, fundamintal bilimning shakllanishiga katta e’tibor qaratiladi. Shuning uchun ham “Birinch muallim” darsligining tarkibida keltirilgan harflar imlosi, talaffuz me’yorlarining qonuniyatlari, “Birinch muallim” asarining mantiqiy davomi hisoblanadigan “Ikkinchi muallim” darsligida o’z ifodasini topadi. Bunda yangi usul maktablariga xos bo’lgan o’qitish tizimining bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilishi amaliy jihatdan o’z ifodasini topadi. Jadidchilik g’oyalariga suyangan holatda ta’limni tashkil etishda ta’limiy xarakterdagi kichik hikoyalar yoki pandnomalarning bayon etilishi, o’quvchilarning mantiqiy yondashishga, axloqiy jihatdan fikrlash darajasiga ham aloqadorlik yuzaga keladi. Shu boisdan ham, Abdulla Avloniy “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim” darsliklarini yaratishda Poshshoxo’ja, Saidrasul Saidazizov, Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li va boshqalarning ijodiy yutuqlaridan, asarlaridan foydalanib o’z darsliklarining tarkibiy qismlariga foydalanilgan adabiyotlar sifatida koritib o’tadi. Jadid darsliklari orasida o’zining tarkibiy qismi bilan ajralib turuvchi “Ikkinchi muallim” asarida keltirilgan matnlarning 20 tasi masal janri asosida yoritib berilgan bo’lib, darslikda kishining adolatli bo’lishi, mehnatsevarli, kishilarga mehribon, do’st-u yorlariga sadoqatli va samimiy bo’lishi darslikda keltirilgan hikoyalar namunasida mazmuniy jihatdan o’z ifodasini topadi. Bu borada jadidchilik faoliyatining farzdandlar tarbiyasiga alqoador qarashlar ham ahamiatlidir deyish mumkin. “Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo’lishi avlodlar tarbiyasiga ko’p jihatdan bog’liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog’cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan”. [2]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulla Avloniyning yangi usul maktablarini yaratishdagi ta’lim, tarbiyaga oid qarashlari uning darsliklarida namoyon bo’ladi. Turkiston o’lkasid amalga oshirilyotgan islohotlarning tub mohiyati yangi usul maktablatda ta’lim berishni kuchaytirish, komil insonni yetishtirish masalasi muhim sanalar edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning yangi usul maktablari amaliyotida qo’llaniluvchi darsliklari boshqa jadidlar asarlaridan ajralib turadi.

References:

1. Xurramov Mansur Musurmon o’g’li, Pardayeva Mohinur Sobirjon qizi. Abdulla Avloniyning “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim” asarlarida tarbiya masalasi. International Consortium on Academic, Trends on Education and Science - 2021
2. Yo’ldosheva Mohidil Sobirjon qizi “Abdulla Avloniy chin ma’noda muallim”. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) - 2022